

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



2021 йил махсус сон



8. Shermatov M et al.: (2021) Distribution of Butterflies of the Family Sphingidae (Insecta, Lepidoptera) in the Fergana Valley. International Journal of Virology and Molecular Biology, 10(2): 27-33. DOI: 10.5923/j.ijvmb.20211002.01.
9. Шерматов М., Ботиров Э. Материалы по распространению подсемейства Macroglossinae (Insecta, Lepidoptera, Sphingidae) в Ферганской долине. НамДУ илмий ахборотномаси - Научный вестник НамГУ. – 2021. №4. – С. 168-176.
10. <http://lepiforum.org>
11. <https://www.zin.ru/collections/Lepidoptera>

CHORVA MOLLARIDA SUT MIQDORINING IRSIYLANISHI VA UNING O'ZGARUVCHANLIK DARAJASI

Mirzaolimova Mohizar Muxamatkarim qizi
Namangan davlat universiteti Biologiya kafedrasida o'qituvchisi
Abdullayev Shuhratjon Solijonovich
Namangan davlat universiteti, doktorant
Abdulaminov Muhammadzohir Islomxon o'g'li
Namangan davlat universiteti, Biologiya yo'nalishi, 3-kurs talabasi

***Annotatsiya:** ushbu maqolada chorva mollarini iqtisodiy samaradorligini oshirishda variatsion statistik usuldan foydalangan xolatda hayvonlarning sut maxsuldorligini qisqa vaqt ichida oshirildi va sifat ko'rsatkichlari jihatidan yuqori natijalarga erishildi.*

***Kalit so'zlar:** biosfera, genofond, qora mol, zot, naslchilik, duragay, variatsion statisyik usul, sut maxsulotlari, irsiy koeffitsient.*

НАСЛЕДОВАНИЕ КОЛИЧЕСТВА МОЛОКА В ЖИВОТНОВОДСТВЕ И ЕГО УРОВНЯ ИЗМЕНЧИВОСТИ

Мирзаолимова Мохизар Мухаматкаримовна
Наманганский государственный университет, преподаватель кафедры Биологии
Абдуллаев Шухратжон Солижонович
Наманганский государственный университет, докторант
Абдуламинов Мухаммадзохир Исломхон угли
Наманганский государственный университет, студент 3- курса направления Биологии

***Аннотация:** в статье приводятся качественные показатели, которые были увеличены за короткий период времени и достигнуты с помощью вариационного статистического метода для повышения молочной продуктивности экономической эффективности скотоводства.*

***Ключевые слова:** биосфера, генофонд, крупный рогатый скот, порода, селекция, гибрид, вариационно-статистический метод, молочные продукты, генетический коэффициент.*

INHERITANCE OF MILK QUANTITY IN LIVESTOCK AND ITS LEVEL OF VARIABILITY

Mirzaolimova Mokhizar Mukhamatkarimovna
Namangan State University, teacher of biology department
Abdullaev Shukhratjon Solijonovich
Namangan State University, doctorant



Abdulaminov Mukhammadzohir son of Islomkhon
Namangan State University, 3-course student in the direction of Biology

Annotation: This paper provides qualitative indicators that have been increased in a short period of time and achieved using the variational statistical method to increase the milk productivity of the economic efficiency of cattle breeding.

Key words: biosphere, gene pool, cattle, breed, selection, hybrid, variational-statistical method, dairy products, genetic coefficient.

Mavzuning dolzarbligi: Chorva hayvonlari qishloq xo'jaligining ajralmas bir qismi bo'lib, xalq xo'jaligida alohida ahamiyat kasb etadi. Chorva hayvonlaridan insonlar uchun zarur oziq-ovqat, sut, go'sht va tuxum mahsulotlari olinadi. Bu ko'rsatkich orqali mamlakat aholisining farovonligi haqida fikr yuritish mumkin. Bundan tashqari chorva hayvonlari sanoat uchun xomashyo manbai hisoblanadi. Ularga jun, teri, barra teri, shox, tuyuq va boshqa mahsulotlar kiradi.¹

Chorva hayvonlari va parrandalari chiqindilari mahalliy o'g'it sifatida yer unumdorligini oshirishda beqiyos o'rin tutadi. Masalan: bir sigirdan bir yilda olingan go'ng bilan 1ga yerni mahalliy o'g'itga bo'lgan talabini qondirish mumkin. Shu boisdan chorva hayvonlari asosiy vazifasi chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirish evaziga xalqning oziq-ovqat, sanoatni esa xomashyo bilan taminlashdan iboratdir.

Qoramollarning asosiy mahsulotlaridan biri sut mahsuloti bo'lib uni baholashda sut miqdori, sutdagi yog' va oqsil miqdori muhim ahamiyatga ega. Sut mahsulotining o'rtacha naslga berilishi aniqlangan, ya'ni ikki zot hayvonlari o'zaro chatishtirilganda olingan duragaylarning sut mahsuloti boshlang'ich zotlar mahsulotining oraliq ko'rsatkichiga yaqin bo'ladi. Buni o'tkazilgan tajribadan ko'rish mumkin[2,3].

Chorva hayvonlari ham biosferaning bir qismi va uning rivojlanish mahsuli bo'lib, ular ham barcha organizmlar qatori irsiyat va o'zgaruvchanlik qonuniyatlariga bo'ysunadi. Hayvon belgisi va xususiyatlarining normal holatdagi irsiylanish va rivojlanish qonuniyatlarini, hayvon genofondini mutagen omillardan saqlash yo'llarini amaliyotga tadbiiq etish – hayvonlarda miqdoriy belgilarini avloddan-avlodga o'tishi, hayvon zotlarini ko'paytirish, ulardan unumli foydalanish va ulardagi kasalliklar kelib chiqish sabablarini o'rganishda hayvon salomatligini saqlash va iqtisodiy yordam uchun muhim yo'l hisoblanadi. Hayvon irsiyatini o'rganishda bir qancha qiyinchiliklar. Jumladan, hayvonlar jamiyatida maqsadga muvofiq bo'lgan mol zotlarini ko'paytirish, ularni naslni doimiyligini saqlash kabi bir qancha muammolar mavjud. Shuningdek, tadqiqotchi miqdoriy belgilarni o'rganish davomida xisoblash xatoliklariga yo'l qo'ysa, natija kutgandek chiqmaydi. Bu esa o'z navbatida noaniqliklar keltirib chiqaradi. Bulardan tashqari, mollar kariotipi juda murakkab bo'lib, bog'lanish guruhleri ancha ko'pdir. Har qanday organizmlarda belgi-xossalarning rivojlanishi bir tomondan genotipga, ikkinchi tomondan tashqi muhit omillariga bog'liq. Ma'lumki, hayvon va o'simliklar ustida tajriba o'tkazilganda, turli xil irsiy xususiyatlarga ega bo'lgan organizmlarni bir xil muhitda o'stirib, ular orasida paydo bo'lgan farqlardan irsiy omillar ulushini aniqlanadi [3,4,5].

¹ Xudayorov R., Abdalniyozov Sh. Golshtinlashtirilgan qizil cho'l qoramollarining Oral bo'yi sharoitiga maslashish xususiyatlari. //Zooveterinariya. - Toshkent, 2010. №10. 23-25 b.



Masalan, mahalliy, zoti yaxshilangan sigirlar (oʻrtacha sut mahsuloti 1600 kg) bilan qorala zot hayvonlari (oʻrtacha sut mahsuloti 4000 kg) oʻzaro chatishtirilganda olingan birinchi boʻgʻin sigirlarning sut mahsuloti oʻrtacha 2800 kg atrofida boʻldi. Laktatsiya davomida sigirlardan olingan sut miqdorining irsiy koeffitsienti oʻrtacha 20-40% ga teng. Ammo sut mahsulotining hosil boʻlishiga paratipik yaʼni tashqi muhit faktorlari (oziqlantirish, asrash, sogʻish va boshqalar) katta taʼsir koʻrsatadi. Shuning uchun oʻxshash genetik imkoniyatga ega boʻlgan sigirlar har xil xoʻjalik sharoitlarida har xil mahsuldorlikka ega boʻladi.

Sutdagi yogʻ va oqsil miqdori ham oʻrtachaga yaqin holda naslga berilishi aniqlangan. Ularning irsiy koeffitsienti oʻrtacha 50-70% ga teng boʻlishi aniqlangan. Yaʼni bu belgilar ancha mustahkam boʻlib, ular tashqi muhit omillari taʼsirida kam oʻzgaradi.

Sut mahsuloti yelinda hosil boʻlib, yelinning shakli, kattaligi soʻrgʻichlarning shakli va ularning katta-kichikligi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda sigirlarning yelin shaklini vannasimon, aylanasimon va echki yelin shakliga boʻlib oʻrganadilar. Vannasimon va kosasimon yelinning hajmi katta boʻlib, sigir qornining oldingi va orqangi tomoniga qarab yaxshi rivojlangan, tagi tekis, oldingi va orqangi boʻlaklari oʻzaro ancha teng rivojlangan boʻladi. Bunday yelinli sigirlar sersut boʻlib mashinadan sogʻish uchun qulay boʻladi. Aylanasimon yelin sigirlar ham yaxshi mahsuldorlikka ega boʻlib, ularda yelini biroz osilgan boʻladi.

Echki yelin sigirlarda esa yelinning oldingi boʻlaklari yaxshi rivojlanmagan ular kam mahsul va mashinada sogʻish uchun yaroqsiz hisoblanadi. Shuning uchun bunday sigirlarni goʻsht mahsulotlari olish uchun topshiriladi. Yelin shaklining irsiy koeffitsienti oʻrtacha 30-40% ga teng. Soʻrgʻichlar silindrsimon, konussimon, noksimon va qalamsimon shakllarda boʻladi. Bulardan birinchi va ikkinchi shakldagisi mashinada sogʻish uchun qulay boʻlib, noksimon va qalamsimonlari soʻrgʻichlari yaroqsizdir.

Sigirlarni mashinada sogʻishda yelin boʻlaklarida sutning taqsimlanishi va sut berish tezligi muhim ahamiyatga ega. Yelinning oldingi boʻlaklaridan olinadigan sut miqdori koʻpgina zot sigirlarda oʻrtacha 42-44% ni tashkil qiladi. Qoramollarning jersey zotida bu koʻrsatgich 46-47% ga teng. Echki yelin sigirlarning oldingi boʻlaklaridagi sut miqdori oʻrtacha 36-38% atrofida boʻlib, bu sigirlar mashina bilan sogʻilganda oldingi boʻlaklardagi sut tez tamom boʻlib, orqa boʻlaklarda hali sut sogʻish davom etadi. Natijada «boʻsh sogʻish» yuz beradi bu, koʻpincha yelinning yalligʻlanishi (mastit) kasalligiga sabab boʻlishi mumkin. Yelinning oldingi boʻlaklaridagi sut miqdorining koeffitsienti oʻrtacha 45 foizga teng.

Oʻrtacha sut berish tezligi, sigirlarni mashina bilan sogʻishida juda muhim ahamiyatga ega. Sut berish reflektor protsess boʻlib, gipofiz bezidan ajralib chiqadigan oksitotsin gormoni taʼsirida yuz beradi. Bu gormonning taʼsiri oʻrtacha 5-6 minut davom etadi. Shu vaqt ichida sigir tez sogʻilmasa sut berish toʻliq boʻlmaydi. Shuning uchun sut berish tezligini yaʼni har bir minutda olinadigan sut miqdorini aniqlash zarur. Hozirgi sharoitda 1 minutda oʻrtacha 2 kg sut beradigan sigirlar maqsadga muvofiq sigirlar hisoblanadi. Oʻrtacha sut berish tezligining irsiy koeffitsienti oʻrtacha 50-60 foizga teng boʻlishi aniqlangan. Mahsuldorlik belgilarining naslga berilishida har ikki jins teng qatnashadi.

Yuqoridagi belgilarni yanada yaxshilash maqsadida sunʼiy qochirishda naslli buqalardan keng foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda naslli buqalar maxsus xoʻjaliklar naslchilik zavodlari, eleverlarda yetishtiriladi. Buning uchun onasi kamida 5-6 ming kg 4,0-4,2% yogʻlilikdagi sut bergan oilalarda tugʻilgan erkak buzoqlar nasl uchun ajratiladi. Ularning onasi va otasining onasi



yaxshi yelin shakliga ega bo'lishi zarur. So'ngra bu erkak buzoqlar 15-20 kunligida eleverlarga keltirib 10 oygacha bog'lanmasdan mo'l-kol oziqlantiriladi va 12 oyligidan bolalarining sifatiga qarab sinashga qo'yiladi, ya'ni ularning urug'i bilan 60-80 ta kamida 3500 kg, 4,0-4,2% yog'lilikdagi sut beruvchi sigirlar qochiriladi.

So'ngra tug'ilgan urg'ochi buzoqlar maxsus xo'jaliklarda mo'l-kol oziqlantirilib 16 oyligida qochiriladi. Sinalayotgan naslli buqa o'z qizlarining birinchi laktatsiya davomida bergan suti bilan baholanadi va uning zot yaxshilovchi ekanligi aniqlansa, keyinchalik bular naslchilik ishida keng qo'llaniladi, ya'ni uning sinash davrida to'plangan rezerv urug'i bilan ko'p miqdorda sigirlar qochiriladi va o'zi ham doimiy ravishda urug' berish uchun qo'llaniladi. Natijada sinalgan bitta naslli buqadan bir necha ming bosh yuqori naslli buzoqlar olish mumkin.

Bu buzoqlar keyinchalik yuqori mahsuldorlikka, yaxshi yelin shakliga, optimal sut berish tezligiga, shuningdek hozirgi zamon chorvachilik ishlab chiqarishining texnologik sharoitlariga yaxshi moslashgan bo'lib yetiladilar.

Barcha turdagi xo'jaliklarda sigirlar sut mahsuldorligini muntazam hisobga olib borilishi kerak, bu asl sigirlarni urchitib, sut yetishtirishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Sigirlar sut mahsuldorligi hisobi, turli xo'jaliklarda turlicha amalga oshiriladi. Naslchilik xo'jaliklarida har bir sigir suti yakka hisobga olib boriladi. Lekin bu usul ko'p harajat talab qiladi.

Nazorat sog'imlar usulida sigirlar sut mahsuldorligi 10 kunda bir marta hisobga olib boriladi. Bu usul naslchilik va oddiy xo'jaliklarda amalga oshirilishi mumkin.

Sigirlar sut mahsuldorligini solishtirish maqsadida 305 kunlik suti inobatga olinadi, unda albatta sog'im kunlari soni inobatga olinadi.

Sut qoramolchiligida naslchilik ishlarida: asosiy ko'rsatkichlardan sigirlarning eng yuqori laktasiyada bergan suti miqdori va hayoti davomidagi suti hisobga olinadi. Bu borada sigirning eng yuqori bir kecha-kunduzdagi sut miqdori ham hisobga olinadi, chunki bu belgi yelinning imkoniyatini ko'rsatadi.

Sutchilik xo'jaligida sigirlar sut mahsuldorligining asosiy ko'rsatkichi I furaj sigirdan sog'ib olingan sut hisoblanadi. Uni xo'jalikda yil davomida sog'ib olingan sutni o'rtacha furaj sigirlar soniga bo'lish bilan chiqariladi. Go'shtdor qoramolchilikda sigirlar sut mahsuldorligi muhim ko'rsatkich hisoblaniladi. Bu ko'rsatkich bilan buzoqlarni o'sish va rivojlanishi uzviy bog'langandir. Shuning uchun ushbu ko'rsatkich bo'yicha sigirlar seleksiya qilinadi.

Go'tshdor sigirlar sutni ular yelinining bir tomonidan sutni sog'ib olib o'lganadi, ikkinchi tomonini buzog'i emadi, sog'ib olingan sut 2 ga ko'paytirilib bir kecha-kunduzdagi sut miqdori aniqlanadi. Naslchilik xo'jaliklarda sigirlar sut mahsuldorligi buzoqlar tirik vazniniig 6 oylikdagi, oddiy xo'jaliklarda 8 oylikda ko'rsatkichlari andoza talablariga solishtirilib baholanadi. Birinchi tug'im sigirlar uchun andoza talablari 10 %, ikkinchi tug'imda esa 5 % kamaytiriladi.

Sigirlar sutining tarkibidagi yog' miqdori bir oyda bir marta aniqlanadi, uning uchun 2 kunlik sutdan namuna olinib o'rtacha yog' miqdori aniqlanadi. Sigirlar laktasiyasi davomidagi o'rtacha sutning yog'liligini aniqlash uchun sut 1% yog'likdagi sutga aylantirilib, haqiqiy sog'ib olingan sutga bo'lish bilan aniqlanadi.

Sut ishlab chiqaruvchilar sutni o'zlari qayta ishlashlari, sut tayyorlov idoralari tomonidan sifati va xossalariga qarab qabul qilinadi. Sutning tarkibidagi yog'ning miqdori, nordonligi, tozaligi, bakteriyalar bilan ifloslanganligi qarab sut navlari asosida qabul qilinadi.



Qabul qilingan sut miqdori bazis yog`lilik asosida belgiliniladi. Bazis yog`lilik har bar viloyat uchun urchitilayotgan zotlarga qarab mamlakat hukumati tomonidan 5 yilda bir marta belgilanadi.

1-jadval

Quyidagi jadvalda UMID nomli chorvachilik fermer xo`jaligining 10 kun mobaynida sut miqdorini kuzatish

Mollar nomi	1- may	2- may	3- may	4- may	5- may	6- may	7- may	8- may	9- may	10- may
Holmogor	9	8	9	9	9	9	10	10	10	10
Jeff	8	8	8	9	9	9	9	9	9	9
Amadin	8	10	10	9	10	11	11	12	12	11
Arelano	6	7	7	7	8	7	8	9	10	10
Krasnotip zoti	6	6	6	7	7	8	8	9	9	9
Qora-ola	8	9	7	7	8	9	9	10	10	10
Estoniya qora-ola zoti	8	8	8	9	9	9	10	12	11	10
Aljir 282	8	9	9	10	10	10	10	9	9	9
Klever53	4	5	6	7	8	9	7	8	9	6
Qizil cho`l	6	8	7	8	9	10	11	12	10	9
Litva qizil	7	8	7	7	7	7	8	8	9	10
Angler	10	9	8	7	8	7	8	9	9	10
Latviya qong`ir	5	6	6	5	7	8	9	9	99	
Ukrain oqboosh	6	7	8	9	8	9	10	10	9	8
Busheyev	9	9	8	7	8	10	11	10	9	10
Kavkaz	6	8	5	9	10	5	7	7	8	9

Jadvaldan ko`rinib turibdiki har xil turga mansub mollar turlicha hajmda sut berar ekan.

2-jadval

Qizil cho`l va golshtin qizil – ola olingan 1-marta tuqqan sigirlarning Namangan viloyati fermer xo`jaliklari sharoitida sut maxsuldorligi.

Fermer Xo`jaligi nomi	Sigir Bosh soni	Sigirning O`rtacha tirik vazni kg	Bir sog`im davrida sog`ib olingan sut miqdori kg	Sut miqdorining Tebranishi kg	Sutning o`rtacha yog`liligi %	Tebranish	Sog`im davridagi sut yog`i
Usta-Mastapo	10	475.5	4657.1	3600-6475	3.8	3.69-3.97	177.0
Avaz-Qalandar	10	499.5	3522.6	2250-4280	3.87	3.79-3.96	136.3
Yoldosh-Majid	10	470.0	4045.3	3836-4190	3.82	3.79-3.87	154.5
Gujum-Qala	6	483.8	4289.5	3971-4796	4.06	4.03-4.08	174.2
Qahramon	5	477.5	4567.4	4057-6050	3.78	3.63-3.93	17.2
Asal	10	480.0	4641.0	3948-4734	4.1	4.0-4.19	190.3
Jami	51	481.1	4287.2	2250-6475	3.91	3.63-4.19	167.6



Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan tadqiqotlar natijalari tahlilining ko'rsatishicha, sigirlarning asosiy xo'jalik foydali belgilari ko'p jihatdan ularni tug'ilgandagi tirik vazniga ham bog'liqdir. Bu omilning ta'sirini ayniqsa qora-ola zotli qoramollarni golshtinlashtirish jarayonida o'rganish alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki buzoqlarning tug'ilgandagi maqbul tirik vaznini hisobga olib, maqsadga muvofiq o'stirishni tashkil etish zotni takomillashtirishda yuqori mahsuldor podalar yaratish sur'atini oshirishda dolzarb bo'lib hisoblanadi.

Variatsion statistik usuldan tashqari hayvon irsiyati va o'zgaruvchanligini o'rganishda urchitishning chatishtirish va duragaylash usullaridan foydalanish, hayvonlar maxsuldorligini qisqa vaqt ichida oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda hayvonlarning miqdor ko'rsatkichlari inobatga olinib sifat ko'rsatkichlarini esdan chiqarmagan holda olib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Veterinariya to'g'risida" gi Davlat qonuni. Toshkent., 1993. 3 sentyabr.
2. Abdalniyozov B.O. – Zotlararo chatishtirish samaralari. //O'zbekiston qishloq xo'jalik jurnali. № 6. 1996.
3. Abdalniyozov B.A. Duragay sigirlar va mahsuldorlik. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. № 1. 1998.
4. Boybulov.B, Ashirov.M. "Bushuyev zotli sigirlarning maxsuldorlik xususiyatlarining tizimlarga bog'liqligi". J. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. № 4. 2008.
5. Xudayorov R., Abdalniyozov Sh. Golshtinlashtirilgan qizil cho'l qoramollarining Oral bo'yi sharoitiga maslashish xususiyatlari. //Zooveterinariya. - Toshkent, 2010. №10. 23-25 b.

БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНЫХ КОМПЛЕКСЫ МИТОХОНДРИЙ КАК МИШЕНИ ДЛЯ ДЕЙСТВИЯ ФАРМАКОЛОГИЧЕСКИХ АГЕНТОВ

Нажимов А.У., Шертоева Р.С., Худойбердиева Н.Н., Ахмеров Р.Н.

Наманганский Государственный Университет

Тел:+998972164575 e-mail: najimovakmaljon2020@gmail.com

***Аннотация:** Среди природных соединений, обуславливающих лечебный эффект значительное место занимают флавоноиды и они перспективны для создания новых лечебных средств. В данной работе рассматривается их механизм действия на клеточные процесс, главным образом, через влияние на биоэнергетическую систему; на систему апоптоза, на окисление субстратов, на проницаемость мембранных каналов и структуру фосфолипидных мембран.*

***Ключевые слова:** Флавоноиды, фармакология, митохондрия, окисление субстратов, апоптоз, гипоксия, сопряженное дыхание*

FARMAKOLOGIK AGENTLARNING TA'SIRIGA NISHON SIFATIDA MITOXONDRIYALARNING BIOLOGIK FAOL BIRIKMALARI

Najimov A.U., Shertoyeva R.S., Xudoyberdiyeva N.N., Ahmerov R.N.

Namangan Davlat Universiteti

Тел:+998972164575 e-mail: najimovakmaljon2020@gmail.com

***Аннотация:** Davolovchi ta'sirga ega tabiiy birikmalar orasida flavonoidlar muhim o'rin tutadi va ular yangi dori vositalarini yaratish uchun istiqbolli hisoblanadi. Ushbu ishda ularning hujayralardagi*



03.00.00

БИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ
БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
BIOLOGICAL SCIENCES

13	Ўргимчакканани (<i>Tetranychus Urticae</i> Koch) ҳаётий циклининг давомийлигига атроф муҳит ҳароратининг таъсири Эркинов И.О., Рустамов И.К., Нишонова С.А., Ҳабибуллаев А.О.	55
14	Момоқаймоқ (<i>Matricaria Chamomilla</i> L.) ўсимлик экстракцининг жигар дарвоза вена қон томири функционал фаоллигига таъсири Иномжанов Д.Р., Омонтурдиев С.З., Зайнабиддинов А.Э.	58
15	Действия полифенола на регуляции транспорт Ca^{2+} NMDA-рецепторов синапсосомах мозга крыс. Хошимов Н.Н., Азизов В.Г., Мухторов А.А., Мамадаминов Р.Р., Рахимов Р.Н.	63
16	Farg'ona vodiysi po'stloqxo'r qo'ng'izlarining (<i>Coleoptera, Scolytidae</i>) ekologik-faunistik tahlili Sultonov D.Sh.	73
17	Qon va peshobdagi glykoza va keton tanachalarini qandli diabet kasalligida sutka davomida o'zgarishi Mavlanova S.A., Sheraliyeva D.N.	79
18	Фарғона водийси агроэкоцизмлари тунламсимон капалакларининг (<i>Noctuoidea: Lymantriidae, Arctiidae, Erebidae</i>) фаунасига оид маълумотлар Шерматов М.Р., Ботиров Э.А.	83
19	Chorva mollarida sut miqdorining irsiylanishi va uning o'zgaruvchanlik darajasi Mirzaolimova M.M., Abdullayev Sh.S., Abdulaminov M.I.	87
20	Биологически активных комплексы митохондрий как мишени для действия фармакологических агентов Нажимов А.У., Шертоева Р.С., Худойбердиева Н.Н., Ахмеров Р.Н.	92
21	Биогеохимические особенности солончаков центральной ферганы Юлдашев Г., Рахимов А., Азимов З.	99
22	Влияние калорийно ограниченной диета на газо-кислородный обмен и температуру тела животных Омонбоев Д.Р., Мирзаолимов М.М.	104
23	Регрессион таҳлил усули ёрдамида биологик жараёнларни илмий башоратлаш Имомов О.Н., Нажмиддинов А.Н., Усманов Б.С.	106
24	Қиёсий геномика усулларида фойдаланиб ғўзада гуллаш генларини ўрганиш Орипова Б.Б., Музафарова М.Ў., Комилов Д.Ж., Тураев О.С., Кушанов Ф.Н.	110
25	Итузумдошлар оиласига мансуб маданий ўсимликларни қишлоқ хўжалигида тутган ўрни. Исматов А.М., Тошматов С.О., Шермаматов Э.А.	115
26	Namangan viloyatida tarqalgan ayrim gidrofit o'simliklar bioekologiyasi Ergasheva X.E., Jalilova D.U., Jo'rayev O.S.	119
27	Олма мевасининг сақланувчанлигига турли омилларнинг таъсири Абдиева О.Т.	124